



O'ZBEK MODERN ADABIYOTI HIKOYANAVISLIGIDA O'QITUVCHI OBRAZINING IFODALANISHI

Ibragimova Shaxnoza

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-June 2023 yil

Ma'qullandi: 28-June 2023 yil

Nashr qilindi: 30-June 2023 yil

KEY WORDS

Psixologizm, ustoz, modern, professor, o'qituvchi, muallim, shogird, obraz, personaj, motiv, hikoya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek modern adabiyotida yaratilgan hikoyalardagi "ustoz" obrazining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Hamda "ustoz" obrazining ijtimoiy hayotda bajargan vazifasi haqida Nazar Eshonqulning "Xaroba shahar surati", "O'lik mavsum", "Qo'l", "Farishta" hikoyalari; Abduqayum Yo'ldoshevning "Quduq", "Bo'lishi mumkin emas" hikoyalari; Ulug'bek Hamdamning "Ko'zini ochib yumgan odam" hikoyasi asosida tadqiq qilingan.

XXI asrning boshlaridan boshlab adabiy jarayonga yangicha uslub kirib kela boshladi. Bu davr boshqa davrlardan inson psixologiyasini chuqur mushohada etishi bilan ajralib turadi. Shunga mutanosib ravishda asosiy mavzular quyidagicha: insonparvarlik mazmuni va psixologizmning chuqurlashuvi; o'zbek xalqining o'zligini tanishi va mentaliteti masalalariga murojaat etilishi; hayot mazmunini falsafiy mushohada etish. Bu davrning ko'plab ijodkorlari asarlarida "bozor sharoitidagi inson taqdiri" asosiy mavzulardan edi. Bunday asarlarda voqealarining xilma-xilligi, shiddatkorligi yaqqol ko'zga tashlanardi. Bu davr adabiyoti olimlar tomonidan Zamonaviy adabiyot yoki modernizm deb atala boshlandi. Qaysidir ma'noda zamonaviy adabiyot o'zbek adabiyotida tub burilish davri bo'ldi. Zamonaviy o'zbek adabiyoti haqida adabiyotshunos olim Hakimjon Karimov shunday xulosa qiladi: "Zamonaviy o'zbek adabiyoti uchun muallifning dunyoni his etish konsepsiyalaridagi xilma-xillik, voqelikni anglashning yangicha shakllari paydo bo'lishi hamda adabiy obrazlarni milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan qayta anglash xosdir" [1:4].

Modernizm adabiyotida yaratilgan hikoyalarni o'rganar ekanmiz, ijodkorlar har bir insonni alohida bir olam sifatida tasvirlashga uringaniga amin bo'lamiz. Hayot haqiqatini anglab, o'z ruhiyatini taftish qiladigan qahramonlar yaratish orqali badiiy olamni haqiqatga aylantirmoqdalar. Bunday g'oyalarni Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Ulug'bek Hamdam yaratgan hikoyalar orqali kuzatish mumkin. Quyida Nazar Eshonqulning "Xaroba shahar surati", "O'lik mavsum", "Qo'l", "Farishta" hikoyalari; Abduqayum Yo'ldoshevning "Quduq", "Bo'lishi mumkin emas" hikoyalari; Ulug'bek Hamdamning "Ko'zini ochib yumgan odam", "Pillapoya" hikoyalari tadqiq qilingan.

Nazar Eshonqul hikoyalarni o'rganishda uslub jihatdan 2 ga bo'lishadi: milliy ruh aks etadigan, bitta metafora asosiga qurilgan hikoyalar. Nazar Eshonqulning "Xaroba shahar surati" hikoyasi sof modern ruhda yozilgan bo'lib, asosiy g'oyani bitta metaforaga singdirib, butun hikoyani shu asosda quradi. Yozuvchi hikoyalarda "shahar" alohida o'rinda turadi,

hattoki uni obraz darajasiga ham olib chiqadi. Ushbu hikoyada xayoliy "Tursoriya" shahri tilga olinadi. Hikoyada surat motivi ham alohida ahamiyatga ega. Nazar Eshonqulning ko'plab hikoyalarda surat motivi qatnashgan va turlicha vazifalarni bajargan. Ushbu hikoyadagi Tursoriya shahri surati orqali yozuvchi nafaqat millat, balki har bir inson taqdirini yoritishga harakat qilgan. "... aslida har bir odam o'z umrining rassomidir" [2:56]. Suratda tasvirlangan "ulkan oyoq izlari" har bir insonning bosgan yo'li, o'tgan umriga misol. Hikoyaning asosiy qahramonlari: shogird ustoz (professor) va millat. Shogird va ustoz xasta. Bu xastalikning asosida inson ruhiyatidagi buzilishlar va miyadagi konfliktlar yotadi. Yozuvchi ruhan xasta shogird va ustoz ustida tajriba o'tkazadi. Qahramonlar ismlari keltirilmaganligidan butun insoniyat olami va har bir shaxsg qaratilganligini bilish mumkin. Shogirdning umr yo'li "Tursoriya" shahri surati orqali berilgan. Shahar juda ayanchli, xaroba, o'lik shaklda tasvirlangan. Ammo shaharga (umr yo'lga) qaytadan hayot bag'ishlashga hali imkon bor. "Suratda meni yana bir narsa hayratga solgandi - xarobalar ichra qurumga botgan uvada xarsanglar ortida ko'zga tashlanar-tashlanmas bo'lib shuncha yong'inu alg'ov-dalg'ovdan so'ng ham hali bus-butunligicha to'xtab qolgan tegirmon parragi ko'rinardi: parrak hali mustahkam edi va o'lik shaharga faqat shu parrakkina umid bag'ishlab turganday edi" [2:50].

Professor ham qachonlardir Tursoriya shahriga duch keladi. Ammo undan voz kechdim deb o'ylaydi. Ammo endi butun hayoti shu shaharga aylanib bo'lgandi, hatto undan ham battarroq: "Men uning yuziga yalt etib qaradim va professorning yuzida ham xonamdagi suratda his etgan xaroba shaharning aksini ko'rib qoldim.... Mening nazarimda, u asli o'z umr shahrini ko'rmagan, aksincha, vayronaga aylantirgan edi" [2:54]. Shogirdiga ham Tursoriydan voz kechishni maslahatni beradi, ammo u o'zining boy berilgan umri bilan shogirdini Tursoriya tomon chorlaydi: "Tursoriya sizga hayotingizda hech amalga kerak bo'lmaydi, aksincha, tursoriya-pursoriyalarsiz yashash oson va qulay" [2:54]

Professor hayoti davomida orqa-oldiga qaramay umr kechirgan. O'z Tursoriyasini yashnatmagan, gullatmagan, aksincha, yanayam barbod qilgan. Butun umr erishgan yutuqlari-yu kitoblari, mukofotlari - hammasi xaroba qoldiqlari. Umrini yolg'izlikda tushkun va umidsiz o'tkazdi. O'zi shunday bo'lgani yetmagandek shogirdini ham shu yo'lga da'vat etmoqchi. Jamiyatga o'ziga o'xshagan "xasta" insonni yetishtirib bermoqchi. Ammo shogird professorning o'zini ham, o'gitini ham unutadi. Shogird vaqtida tushunib yetadi: "Ehtimol, bu surat buzilgan va yovuzlashgan dunyodan men kabi bir mazmun, bir ma'no izlab o'tgan odamning samarasiz umr haqidagi o'kinchlaridir? Ehtimol, umr qal'asining buzilgan devorlari ichra tutab yotgan yurakning alamnok dudlaridir?" [2:55]

Nazar Eshonqulning "O'lik mavsum" hikoyasi haqidagi ilk fikrlar quyidagicha: "Odamning qonini so'radigan o'likni vampir deyishadi. Ammo Nazar Eshonqul tasvirlagan vampir pakana emas, ota zamonaviy vampir! U qon so'rmaydi. Qon so'rish orta asrlarda qolib ketgan. U odamning mehrini, e'tiborini, umidini, ishonchini, orzu oylarini so'radi. Eng dahshatlisi, vaqtni, umrini so'radi... Lekin hikoya shundayki, uni yuzta odam o'qisa yuz xil fikr bildirishi mumkin" [5] Hikoya taxayyuliy yo'nalishda yozilgan bo'lib, o'qirmanni ma'lum bir falsafiy mushohadaga chorlaydi. Yakuniy xulosani o'qirmanning o'ziga havola qiladi, faqat o'sha xulosaga boradigan yo'l ko'rsatib beriladi xolos. Hikoya o'lim, o'limdan keyingi hayot haqida. Zeroki, bu mavzu barcha uchun birday qiziqarli. Hikoya talaba tilidan hikoya qilinadi. Talabalarga "o'lik" ustozlik qiladi. O'lik ustoz har jihatdan mukammal qilib tasvirlanadi. O'lik ustoz shunchalik darajaga yetadiki, talabalar taqlid qila boshlaydi, juda ko'pchilikni o'ziga

ergashtira oladi.

O'lik ustoz tashqi ko'rinishi ta'rif: "...ustozning ustuxondan iborat qaddi, badanidan anqib turuvchi zah qiyofasida aks etib turadigan hasad aralash kibr va faqat marhumlarga xos sovuq ko'zlar" [2:237].

"Tana o'lib ketaveradi. G'oya yangi avlod bilan birga yangidan tug'ilaveradi. Uni ko'mib bo'lmaydi - uni ko'mishgan taqdirida ham, qabrdan chiqib dunyoni boshqaraveradi. - U shunday deb sirli tirjaydi" [2:232]. O'sha g'oya ustozning o'zi edi. Uning g'oyalari kasallik sifatida tarqab ketishgacha bordi: "...go'yo biz shahar va odamlar oralab yuqumli kasal tashuvchilarga o'xshar, qayerga borsak, o'sha yerni o'zimizning tanamizni va shuurimizni qaqshatib yotgan kasallik bilan zaharlab chiqardik" [2:234-235] Demak, ustoz faqat razillikka xizmat qiluvchi, jamiyat miyasini zaharlovchi g'oyalarni targ'ib qilgan. Go'yoki, o'rta asrlardagi Martin Lyuter g'oyalari kabi. Bugungi kunda ham bunday g'oyalar yo'q emas. Qachonki, insonlarda ma'naviy bo'shliq bo'lgandagina shunday "g'oyalar tuzog'i"ga tushib qolishi turgan gap. Qurbonlar esa borgan sari ko'payib boraveradi.

Hikoyani boshqa jihatdan ham tahlil qilish mumkin. Inson tug'ilar ekan, unga jon va ruh ato etiladi. Jon - vaqtinchalik foni dunyo uchun berilgan. Ruh esa boqiy dunyoga mansub. Demakki, bu dunyodagi hech narsa chuqur muhabbat qo'yib bo'lmaydi. Talabalar o'likni sevishi ham shu sababdan bo'lishi mumkin.

Yana bir boshqa fikr ham borki, "o'lik ustoz" lardan bugungi kunda ham biz ta'lim-tarbiya olyapmiz. Ya'ni Alisher Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Mashrab, Rahbg'uziy va boshqa ajdodlarimiz asarlari o'rganib va o'rgatilib kelinmoqda. Vaholanki, ular necha asrlar oldin bu dunyoni tark etib bo'lishgan. Ammo haligacha asarlari, g'oyalari barhayot.

Yozuvchining "Qo'l" hamda "Farishta" hikoyalarida ham o'qituvchi personaji qatnashgan. "Qo'l" hikoyasida oddiy tegirmonchi oilasida paydo bo'lgan "Yashirin qo'l" orqali zamon kirdikorlari, yeb to'ymas amaldorlarga ishora qilingan. O'qirman dastlab ushbu hikoyani o'qiganda Salom tegirmonchining ziqnaligi, yomonliklari, otasini qattiq ranjitgani - gunohlari uchun tavqi la'nat sifatida "Yashirin qo'l" Alloh tomonidan jazo qilib yuborilgan degan xulosaga boradi. Ammo hikoya yakunini o'qigan o'qirman umumman boshqacha xulosaga keladi. Oqsoqollar, mullalar, muallimlar - amaldorlarga nisbatan jirkanch nafrat hissini tuyadi. Ushbu hikoyani Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasining zamonaviy varianti desak, yanglishmagan bo'lamiz. "Qo'l" lar ortidan Salom tegirmonchining uyi buzilib ketganda, mahalla idorasining yordamini aytmayisizmi?! "Mahalla idorasi o'ziga yuklatilgan vazifani uddaladi: tandirchining oilasini tang paytda o'z holiga tashlab qo'ymadi; unga toki uyini tiklab olishguncha amallab yashab tursa bo'ladigan chodir berishi" [2:461].

Hikoyada Panji muallim personaji qatnashgan. Panji muallim qo'pol, qo'rs, shang'i odam edi. Muallim hamma zamonda ham ma'rifat, ziyo ulashuvchi emas. Ushbu hikoyada ham muallim yuqoridagi "qo'l" lardan biri edi. Salom tegirmonchi muallimdan yordam so'rab uyiga taklif etadi. Muallim uchun qarz ko'tarib quyuyq dasturxon hozirlashadi, ammo muallim dardi yordam berishda emas, nafsda edi: "Muallim eti tobora shilinib borayotgan havodagi ilikka alam bilan qarab turar, agar shu qo'l bo'lmaganda, bu ilik ham, undagi et ham hozir o'ziniki bo'lishini ichdan his qilib turardi" [2:453]. Muallim "bepul maslahat" berishni ham unutmaydi. Rais oldiga borishini aytadi. Rais haqida fikrlar ham tayyor: "Mahallaning baland-pastiga mas'ulmi, u nimalar bo'layotganini, fuqarolarni qanday o'marishayotganini bilsin va yordam bersin. Shusiz ham yordamga muhtoj oilalarga ajratilgan pulni o'zi "gum" qilib, semirib

yotibdi”.

Xuddi shu Panji muallim personaji yozuvchining “Farishta” hikoyasida ham mavjud. Hikoya qahramoni – Boyqul. Hikoyada “... o‘zini qabul qila olmagan, o‘ziga o‘rin bermagan, o‘zini mazah qilgan kattalar dunyosidan qochib, bir umr bola bo‘lib yashashga..” [2:484] ahd qilgan beg‘ubor qalbli inson haqida hikoya qilinadi. Panji muallim dastlab Boyqulni masxaralaydi, ustidan kuladi. Butun umrga yetkulik laqab – “Sancho” ni o‘ylab topadi. Shu orqali bir ojiz insonni mayna qilib, o‘zining noshudligini, dovdirligini go‘yo tan olganday edi. Maqsad esa asl o‘zligini yashirish. Hikoya oxirroqlariga kelib Panji muallim Boyqulning naqadar ajoyib inson ekanligini tan oladi. Hikoyaning bir joyida farishta so‘zi keladi u ham bo‘lsa, Panji muallim Boyqulga farishta sifatini berishida. “Sancho qishlog‘imiz farishtasi!” [2:487] Demakki, Panji muallim o‘z ayblarni tushunib yetib, iqrar bo‘la boshlaydi.

Hikoyada yana bir ustoz yordamchi personaji borki, u ham qabihlikning yorqin timsoli. U Abdulla baxshi edi. Boyqulni aqli noqis deb bildi. 3 yil o‘z xizmatini qildirdi. Birorta doston o‘rgatay demadi, biroq Boyqul eshitgan dostonlarining ayrim jumllarini o‘rganib olgandi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan insonlarga g‘arazligi bo‘lmagan Boyqul Abdulla baxshini o‘z ustozini deb bildi. Dostonni ham baxshilar udumiga ko‘ra ustoziga bag‘ishlov bilan boshlardi: “Aslida, u bu bilan ustozini haqidagi ushalmagan orzusini bayon qilgan bo‘lardi” [2:482].

Abduqayum Yo‘doshevning “Puankare” hikoyasi ko‘plab mulohaza-yu mushohadalarga sabab bo‘lgan hikoyalardan biridir. Hikoyada matematik obrazi orqali bir inson umri tasvirlangan. “Puankare”da ustoz obrazlari - matematik va uning ustozini. Matematik ustozini - yordamchi epizodik obraz. Ayyor, ustomon - odam. Matematik tili bilan aytganda: “Rahbarim... Lobachevskiy, Aleksandrov, Pogorelov, Bakelman, Verner, Kantor, Yefimov, Poznyak, Shikinning izlanishlari haqida yarim soat ma‘ruza o‘qigach – ustozim sovg‘a-salomni shu tariqa hallolab olardi, har qalay, buyam vijdonga suv sepib qo‘yishning bir vositasi bo‘lsa kerak-da” [3:53].

Hikoya qahramoni matematik talabalik yillarida “Puankare” gipotezasini yechishni orzu qiladi. Biroq oilaviy muammolar, moddiyat, 40 yillik do‘st xiyonati bunga izn bermaydi. Nihoyat, shu muammolarni bir chekkaga yig‘ishtirib, endi maqsadga o‘taman deganida qarabsizki, yosh ham bir joyga borib qolgan. Yoshligidagi kabi shijoat, bilim yetarli emasdi. Shunday paytda talablar orasidan o‘ziga shogird va sherik izlaydi. Izlagan insonini topadi ham, lekin yana o‘sha hayot tashvishlari shogirdini ham ko‘p ko‘rmaydi. Shu o‘rinda yozuvchi aytganday: “Har kim o‘z umri davomida gipotezani yechishga urinadi. Garchand bu oson emas. Shu bois yechimni topishga kirishmasdan burun hafsalasi pir bo‘lganlar, boshlashga boshlab qo‘yib, so‘ng aro yo‘lda ortga qaytganlar, eng yomoni, maqsadga yetay-yetay deganda horib-charchab, tirikchilik atalmish tunganmas, mayda-chuyda tashvishlarga alahsigan holda shartta hammasiga qo‘l siltaganlar-u oliy soniyalar ichidan ”jon-jon” deya butkul o‘zga tutumlarning etagini tavof qilishga o‘tganlar qanchadan qancha” [3:94].

Har bir inson yoshligidan orzular ummonida suzadi. Ana shu orzu – “Puankare”. Umr so‘qmoqlarida har bir kishining o‘z Puankaresi bor. Ammo doim ham o‘ylagan orzu-maqsadlarga erishish oson emas. Bu yo‘lda turli sinov-u mashaqqatlar kutib turibdi. Muhimi, og‘ishmasdan harakat qilish. To‘g‘ri, bu juda qiyin masala. Ammo vaqti kelganda orzular, vijdon oldida javob berishni unutmazlik lozim.

Abduqayum Yo‘ldoshevning “Quduq” hikoyasida bosh obraz – Tirkash muallim.

Hikoyada Tirkash muallimni nobud qilish orqali insonlarning shuhratparastligi, o'z boshiga o'zi soladigan kulfatlari ustidan kulinadi. Tirkash muallim birovga ozor bermaydigan, mehribon ota, o'z kasbining fidoyisi. Hammasi Tirkash muallimning 5 yashar qizchasi Sabohatning baxtsiz hodisa tufayli quduqqa tushib ketib, bevaqt vafot etganidan boshlangan hikoya, butun qishloq buzilishi va Tirkash muallimning ruhiy kasalliklar shifoxonasigacha olib boradi. Qizchani o'limida muallimni ayblashadi. Lekin otada nima ayb? Ota bu hodisaga juda qattiq kuyunadi. "Salla ol desa, kalla oladiganlarning urug'i seroblashgan paytlar edi"[6]. Shundaylardan leytenant qizcha haqida oshirib-toshirib maqola yozib chiqaradi. Unda bir kattalar, bir quduq ayblangan edi. Aslida leytenantning vazifasi – muallimni himoya qilish emasmi? Biroq butun jamiyatdagilar vazifasini unutgandi. Muallim ishlab yurgan maktab direktori "Avvalo tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lmog'i kerak" qabilidagi gaplar bilan muallimni ishdan oladi. Ko'cha-ko'yda bosh ko'tarib yurolmay qoladi. "Uning ismi ham, bir paytlar hurmat bilan tilga olinadigan "mallim" qo'shimchasi ham unutildi. Endi uni katta-yu kichik orqavoratdan ham, o'ziga eshittirib ham "kasofat", "palakat" deb atay boshlashdi" [6]. Jamiyat kamtargina ishlab yurgan o'qituvchini bag'riga sig'dira olmadi. Alaloqibat, chiday olmay bosh ko'targan muallimni jinniga chiqarishdi-qo'yishdi.

Adibning "Bo'lishi mumkin emas" hikoyasi oddiy hayotdagi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bo'lgan voqeani bayon qilgan. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi Mamasoli aka va o'quvchi Nosir Abirov. Shakl tomonlama kichkina hikoya bo'lishiga qaramasdan real hayotdagi ba'zi bir o'qituvchilarni ko'rsatib bera olgan. O'qituvchi - qo'rqqoq. O'quvchi qobiliyatini boshqalarga isbotlashdan qo'rqadi. O'quvchisining ise'dodini ko'ra bila turib, unga yo'nalish berishni istamaydi. Balki bu iste'dodi uchun boshqalar oldida yanayam yerga uradi. Har bir insonda qobiliyat bo'ladi, faqat uni yuzaga chiqarish, yanada rivojlantirish uchun bir yo'nalish beruvchi inson kerak bo'ladi. Ko'p hollarda bu borada ustozlarga suyaniladi. Biroq yuqoridagi kabi ustozlar ham yo'q emas. Ming afsuski, shunday ustozlar tufayli o'quvchilar iste'dodlari so'nib boraveradi.

Bugungi kunda o'zbek adabiyoti vakillari orasida Ulug'bek Hamdam o'zining chuqur, sermazmun roman va hikoyalari bilan xalq og'ziga tushgan ijodkorlardan biridir. Yozuvchining o'z uslubi bor, ya'ni deyarli barcha asarlarida "hamdamona qarash" ustunlik qiladi. Har bir asar qahramoni g'oyat samimiy bo'lib, o'z-o'zini idrok, taftish etishga urinadilar. Shunday kitoblardan biri "Yaxshiyam, sen borsan" kitobidir. Avvalo, ushbu kitobning alohida jihati shundan iboratki, kitobga kiritilgan barcha katta-yu kichik asarlar yozuvchi tushlari asosida yaratilgan. Ulug'bek Hamdam zamonaviy o'zbek adabiyotida yangi janrni-snovella (tushbitiklar)ni boshlab bergan. Quyida ushbu kitob tarkibiga kirgan hikoyalardan biri – "Ko'zini ochib yumgan odam" hikoyasi tahlil qilinadi.

"Ko'zini ochib yumgan odam" hikoyasi falsafiy ruhda yozilgan bo'lib, har bir insonni chuqur mushohadaga undaydi. Ustoz mavlono Rumiya bag'ishlangan bu hikoyada o'zligini yo'qotib, sarsar bo'lgan shogird haqida hikoya qilinadi. Hikoya shogirdning qalb ko'zlari ochilishidan boshlanadi. Ba'zida ko'zlar ko'ra olmagan narsani qalb ko'zi ko'radi. Shogirdning qalb ko'zlari ochilishiga ustoz o'limi sabab bo'ladi. Shogird umri davomida o'z hayot yo'lida emas edi, ustoziga – ustoz bitiklariga juda suyangan edi. Ustozi olamdan o'tgach hech kimga aylanadi, qoladi. "Ustoz yo'q – men yo'q, uning bitiklari yo'q – yana men yo'q! [4:152] Ustozini so'nggi manzilga kuzatish uchun yo'lga chiqqan shogird bu yo'l davomida aslida qanday inson ekanligini tushunib yetadi: "Ha, endi men bitta yo'lni, o'zimning yo'limni qidira

boshlagandim... [4:157] Bu yo'l oxirida shogirdga bulutlar go'yoki ko'zgu tutadi. Ba'zida hayotda qidirgan narsalarimiz shundoqqina oyoqlarimiz ostida bo'ladi. Ustoz shogirdning o'zida-qalbidagi edi. Hikoyada ustoz obrazi majoziy bo'lib, har bir inson qalbidagi ustozga ishora qilinadi. Har bir inson o'z-o'ziga ustozdir. Hikoya mavlono Rumi so'zlari bilan yakunlanadi. "Narsa yo'qki, xoriji olam erur, har ne istarsen, o'zingda jam erur" [4:160]

Ulug'bek Hamdamning "Pillapoya" hikoyasi ham ustozlariga bag'ishlangan hikoyalardan biridir. Har bir asarning epigrafi o'sha asarning mohiyati, mazmunini oz bo'lsa-da, ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu hikoya epigrafi ham shu funkani bajargan. Hikoya epigrafi quyidagicha: "Agar haqiqat mening yuzimga oyoq bosib o'tishni taqozo etsa-yu, sen buni qilmasang, aslo rozi emasman" (Bahouddin Naqshband) [4:173]. "Pillapoya" hikoyasida ikkita epigraf qo'llangan, ammo yuqoridagi birgina epigraf orqali yozuvchi muddaosini anglab olish mumkin. Adibning "Pillapoya" hikoyasi mohiyatan "Ko'zini ochib yumgan odam" hikoyasiga yaqin. Inson hayoti ko'pincha zinalarga o'xshatiladi. Yozuvchi ham umr yo'llarini pillapoylarga o'xshatib, har bir kishining hikoyasi, pillapoyasi bir olam ekanligiga urg'u beradi. Go'yoki adib: "Hayot ma'nosini o'z pillapoyangdan qidir" demoqchiday. Shu o'rinda qahramonini haqiqat uchun kurashga, kimningdir pillapoyasidagi yo'lovchi bo'lishdan qochishga (hatto u ustoz bo'lsa ham) da'vat etadi. "Mo'jizani esa o'zgalar bosib o'tgan yo'l emas (hatto ular ustoz bo'lsa ham), balki oldimda qaddini g'ozdek kerib turgan mana shu pillapoyagina hadya qilishi mumkin" [4:181]. Hikoya bo'yicha quyidagi umumiy qarorga kelish mumkin: "Ustoz senga maqsadni emas, maqsadga erishish yo'lini ko'rsatsin".

So'ngso'z o'rnida aytish mumkinki, modern o'zbek adabiyotiga kelib shakl o'z ahamiyatini yo'qota bordi. Tobora erkin fikrlash, borini ochiqchasiga yozish ommalashdi. Falsafiylik va psixologizm yuksak cho'qqiga erishdi. Modern adabiyotda o'qituvchi obrazi ham boricha, ortiqcha bo'yoqlarsiz ifodalana boshlandi. Ustoz obrazi ko'p bora tanqidlarga uchradi. Bu bejiz emas edi. "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" deganlaridek shunday sharaflil insonlar orasida o'z kasbini suiiste'mol qilganlar ham topiladi. Yozuvchilar esa bunday holatlarni boricha yozishga harakat qildilar. Ammo hali-hanuz ustozlik maqomi martabali o'rinlardadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nasirov Azimidin. Hozirgi adabiy jarayon. Samarqand-2021.
2. Nazar Eshonqul. Saylanma I. Hikoyalar. Toshkent. "Akademnashr" 2022.
3. Abduqayum Yo'ldosh. Puankare. Toshkent. "Akademnashr" 2022.
4. Ulug'bek Hamdam. Yaxshiyam, sen borsan. Roman va hikoyalar. Toshkent. "Akademnashr" 2023.
5. kompy.info
6. Tafakkur.net